

---

## Yormozorda ham 3 ming metrdan ortiq ichki ko'chalar asfal't qilindi

"Tashabbusli byudjet" loyihasining 2-bosqichida yormozorliklar ham faol qatnashdilar. Mahalla ahli tomonidan kiritilgan ichki ko'chalarni asfal'tlashtirish taklifi qo'llab-quvvatlanib, g'olib bo'ldi.

Mahalladagi 5 ta ko'chalarni ta'mirlash va Gulshan bilan Ipak yo'li ko'chalarining 3 km. uzunligidagi masofasi asfal'tlashtirildi.

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov hududga tagrif buyurib, amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Aholi vakillari bilan suxbatlashdi, fuqarolar so'nggi yillarda mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha salmoqli ishlar bajarilayotganligidan mamnun ekanliklarini ta'kidlab o'tishdi.

Shahar hokimi qurilish tashkiloti mas'ullariga asfal't chetlarini shag'al va mayda tosh bilan to'ldirish, qayrilishlarni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Hozirda berilgan topshiriqlar asosida belgilangan ishlar quruvchilar tomonidan bajarilmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:45:37